



FYODOR MIXAYLOVICH DOSTOYEVSKIYNING “KAMBAG‘ALLAR”  
ROMANI XUSUSIDA BADIY TAHLIL

*Soatova Aziza Sadridin qizi*

*Termiz davlat universiteti*

*Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi talabasi*

[\*azizasoatova011@gmail.com\*](mailto:azizasoatova011@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiyning “Kambag‘allar” asari tahlil qilinadi. Asarning sujeti, asosiy g‘oyasi hamda Makar Devushkin va Varvara Dobroselova obrazlari orqali kambag‘allik muammosining inson ruhiyatiga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, asarning epistoliar shaklda yozilgani va bu usul qahramonlar ichki kechinmalarini ochib berishdagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Syujet, kompozitsiya, realizm, obraz, kambag‘allik, epistoliar roman, psixologik analiz*

**Annotation:** *This article analyzes Fyodor Mikhailovich Dostoevsky’s novel Poor Folk. The plot, main idea, and the impact of poverty on the human psyche are examined through the characters of Makar Devushkin and Varvara Dobroselova. The article also highlights the epistolary form of the work and demonstrates the significance of this method in revealing the inner experiences of the characters.*

**Keywords:** *Plot, realism, poverty, epistolary novel, psychological analysis.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируется произведение Фёдора Михайловича Достоевского “Бедные люди”. Рассматриваются сюжет, основная идея произведения, а также влияние бедности на человеческую психологию на примере образов Макара Девушкина и Варвары Добросёловой. Также показано значение эпистолярной формы произведения в раскрытии внутренних переживаний героев.*



*Ключевые слова:* Сюжет, реализм, бедность, эпистолярный роман, психологизм.

Yozuvchi qo‘liga qalam olar ekan, u shunchaki matn yaratish bilan cheklanmaydi. Har bir badiiy asar jamiyatdagi muayyan illatlarni ochib berishi, inson xulq-atvoridagi salbiy jihatlarni yoritishi yoki o‘quvchiga ma‘naviy ta‘sir ko‘rsatishi lozim. Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy ijodida ana shu jihatlarning barchasi mujassamdir. Adib o‘zining realistik uslubi orqali hayotdagi muammolarni, inson tabiatidagi qusurlar va kamchiliklarni chuqur psixologik tahlil asosida tasvirlaydi hamda ularni o‘quvchi ongiga badiiy vositalar orqali yetkazadi. Uning shu singari asarlariga misol sifatida “Telba”, “Oydin tunlar”, “Jinoyat va jazo”, “Aka-uka Karamazovlar”, “Qimorboz” va “Kambag‘allar”ni keltirishimiz mumkin. Ushbu asarlarning har birida jamiyatning eng og‘riqli nuqtalari ochib berilgan.

“Kambag‘allar” romani Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiyning ilk bor nashr etilgan asari hisoblanib, uni yozgan paytda Dostoyevskiy 24-25-yoshlar arafasida bo‘lgan. Asar poetikasida rus adabiyotining romantizmdan realizmga o‘tish jarayoni, shuningdek, Aleksandr Pushkin va Nikolay Gogol ijodining ta‘siri ham seziladi. Shuningdek, Dostoyevskiy ushbu romanni yozishdan avval Onore de Balzakning “Yevgeniy Grande” asarini tarjima qilgan bo‘lib, bu tajriba uning rus hayotini aks ettiruvchi ijtimoiy-psixologik yo‘nalishdagi asar yaratishiga turtki bo‘lgan.<sup>1</sup> Yozuvchining maktublarida roman shaklini tanlash orqali u nafaqat kambag‘al insonlarning ijtimoiy hayoti va taqdirini tasvirlashni, balki ularning ichki dunyosi va ruhiy kechinmalarini imkon qadar to‘liq ochib berishni maqsad qilgani ta’kidlanadi.

“Kambag‘allar” romanining yaratilish jarayoni Dostoyevskiy hayotidagi muhim ijodiy bosqich bilan bog‘liqdir. Asar g‘oyasi yozuvchining yoshligida, muhandislik bilim yurtida tahsil olayotgan davrida shakllangan bo‘lib, bu haqda ilk ma‘lumotlar uning 1844-yil sentyabr oyida akasiga yo‘llagan maktubida uchraydi. Ushbu maktub yozuvchining yangi badiiy niyatlar ustida jiddiy ishlay boshlaganidan dalolat beradi. Zamondoshlari xotiralariga ko‘ra, Dostoyevskiy roman ustida

<sup>1</sup> <https://uz.wikipedia.org>



ishlagan paytda deyarli barcha vaqtini yozuv stolida o'tkazib, ijod jarayoniga to'liq sho'ng'igan. Asarning dastlabki nusxasi 1844-yil oxirlarida tayyor bo'lgan bo'lsa-da, yozuvchi uni bir necha bor qayta ishlaydi. 1845-yil davomida roman matni takomillashtirilib, ayrim qismlar butunlay yangidan yoziladi. Nihoyat, 1845-yil bahoriga kelib asar yakuniy shaklini oladi.<sup>2</sup>Qo'lyozma bilan tanishgan shoir va noshir Nikolay Nekrasov yosh muallif iste'dodini yuqori baholab, romanni nashr etishga tavsiya qiladi. Asar taniqli adabiy tanqidchi Vissarion Belinskiy tomonidan ham iliq kutib olinib, Dostoyevskiyni rus adabiyotiga kirib kelayotgan yangi iste'dod sifatida tanitadi. Roman ilk bor 1846-yilda "Peterburg to'plami"da chop etiladi. Asar voqealarini shakllantirishda Dostoyevskiy faqat tashqi kuzatuvlarga emas, balki o'z shaxsiy hayotiy tajribasiga ham tayangan. Shu sababli romandagi ayrim obrazlar real hayotdagi shaxslar bilan bog'liq holda yaratilgan. Jumladan, Varvara Dobroselova obrazi yozuvchining singlisi Varvara Mixaylovna bilan ma'lum jihatlarida mushtarakdir. Qahramonning ismi, bolalik xotiralari va ruhiy kechinmalari muallifning oilaviy xotiralari bilan uyg'unlashadi. Shuningdek, romanda tasvirlangan ayrim ikkinchi darajali personajlar va makonlar ham Dostoyevskiy hayotidagi real voqealar bilan bog'liq. Varenkaning otasi obrazi yozuvchining otasiga qiyoslanadi, qishloq manzaralari esa adibning tug'ilib o'sgan Darovoye qishlog'i tasvirlarini eslatadi. Qahramonlar nutqidagi hissiylik va samimiylik Dostoyevskiyning oila a'zolariga yozgan maktublarida uchraydigan til va uslub bilan yaqinlik kasb etadi. Anna Fedorovna obrazi ham muallifning qarindoshlaridan biri bilan bog'lanib, oilaviy munosabatlarning badiiy talqinini aks ettiradi. Bikov obrazi esa Varvara Mixaylovnaning hayotidagi real shaxs bilan bog'liq holda yaratilgan, deb qaraladi.

Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiyning ushbu asari konsentretik sujetda yozilgan asarlar sirasiga kirib, ko'plab kulminatsiyalarni o'zida mujassamlashtiradi. Bu esa personajlarning badiiy jihatdan tasvirlanishi, voqealarning izchilligini mohirona tasvirlashga yordam beradi. Asarning bosh qahramoni Makar Devushkin

<sup>2</sup> <https://hujjat24.uz/product/dostoevskiyning-kambag-allar-asari>



kambag'al, jamiyatda o'z o'rnini topa olmagan, past lavozimli kishi sifatida tasvirlanadi. Yozuvchi Makar obrazi orqali kambag'al aholining ichki og'riqlarini, ularning xayollarida nimalar kechishini mahorat bilan ochib bergan. U Varvara Alekseyevnani qadrlar, garchi o'zi ham kambag'al bo'lsa-da, unga borini baxshida etar edi. Afsuski, shu tufayli o'zi ham juda qiyin ahvolga tushib qolar, Varvaraning qarshi bo'lishiga qaramasdan baribir unga qo'lidan kelgancha nimadirlar qilishga harakat qilardi. Varvara Alekseyevna ham hech vaqosi yo'q bir kambag'al yosh qiz edi. Uning bu dunyoda qalbini quvonchga to'ldiradigan faqat bir narsa bor edi. O'sha narsa esa uning qishloqda o'tgan bolalik xotiralari edi. Ammo taqdir taqozosi bilan uning oilasi Moskvaga kelib qoladi va shu yerda uning hayotidagi eng qora kunlar boshlanadi. Lekin Makar Devushkin uning shu qora kunlariga biroz bo'lsa-da nur olib kira oladi. Aslini olganda, ikki bechora ham maktublar yozish orqali bir-birining dardiga malham bo'ladi. Ularning yozishgan maktublarini o'qish orqali jamiyatdagi muammolarning qay darajada ekanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Jumladan, Gorshkovning 9 yoshli o'g'li kasallik tufayli vafot etadi. Ularning oilasi shu qadar kambag'al bo'ladiki, Makar hatto: "Bittasidan qutulganiga xursand bo'lishayotgandir ichlarida..." degan jumlaning ham aytib o'tadi. Negaki, ota-onalari uchun ham bolalarining ozib cho'p bo'lib qolganini, ularni to'ydirish uchun hech vaqosi yo'qligini ko'rish oson emas. Ayniqsa, Makar yozgan maktubda keltirilgan ushbu jumla kishining qalbini titratmasdan qolmaydi: "Bolaning o'ylangani, onajonim Varenka, menga sira yoqmaydi; juda xunuk ko'rinadi! Yoninasida yerda latta qo'g'irchoq yotibdi - o'ynash qayoqda, barmog'i labida qilt etmaydi, sho'rlik, tek qotib qolgan. Onasi shirinlik berdi, oldi-yu, yemadi. Alamli holat- shunday emasmi, Varenka?" Odatda yosh bolalar tinib- tinchimas, o'yinqaroq bo'ladi. Shirinliklar esa jon-u dili. Ammo shunday sabablar borki, ular bolaning ham bolaligini o'g'irlagan. Yuqorida tasvirlangan qizaloqning otasi Gorshkov halol va kamtar inson bo'lsa-da, u aybi bo'lmagan jinoyatda ayblanib, uzoq vaqt adolatsiz ravishda jazoga tortiladi. Jamiyat va sud tizimi uning holatini chuqur o'rganmaydi, natijada u nafaqat moddiy, balki ruhiy jihatdan ham yemiriladi. Dostoyevskiy bu



obraz orqali adolat tizimidagi beparvolikni ifodalamoqchi bo‘lgan. Gorshkovning fojiasi shundaki, u oxir-oqibat oqlanadi, ammo bu oqlanish juda kech keladi. Tuhmat tufayli u sog‘lig‘idan, kuchidan va hayot quvonchidan ayriladi. Gorshkov oqlanar ekan, “Vijdonim pok, vijdonim pok, yaxshi nom, bolalarim” degan jumlaning takror-takror aytaveradi, to‘shakka yotadi va qayta uyg‘onmaydi. Gorshkov bu xabarni uzoq kutdi, aybi yo‘q ekanligi, vijdoni toza ekanligi isbotlangandan so‘ng yaproq misoli uziladi-yu, bu olamni tark etdi. Asarda diqqatimizni qaratishimiz kerak bo‘lgan yana bir obraz bor. Bu Pokrovskiy. Sog‘ligi tufayli o‘qishini davom ettira olmagan, bilimi bilan oz bo‘lsa-da, pul ishlab topadigan, lekin kambag‘al, xonasida nodir kitoblardan boshqa hech narsasi bo‘lmagan obraz. Otasiga bo‘lgan munosabati kishini o‘ylashga majbur qiladi. Negaki, otasi Pokrovskiyning yaxshi ko‘rardi, o‘g‘liga yoqish, uning ko‘ngliga yo‘l topish uchun o‘lib—tirilar edi. Pokrovskiyning esa otasiga bo‘lgan munosabati kitobxonni ba‘zida biroz jahlini chiqarishi mumkin. To‘g‘ri, otasi ichkilikka ruju qo‘ygan, hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lmagan inson bo‘lsa-da, u ota edi. Pokrovskiy kitoblar olamida o‘zini baxtli his qilardi, najotni kitoblardan topadi. Lekin kambag‘allik uni ham adoyi tamom qiladi. Sog‘ligi kundan kun yomonlashib, oxiri vafot etadi. Balki, kasal bo‘lmaganda, puli ko‘proq bo‘lganda uning taqdiri yaxshiroq bo‘lgan bo‘lar edi. Pokrovskiyning erta olamdan ko‘z yumgani Varvaraning ko‘nglida ham chuqur og‘riq qoldiradi. Negaki, bu ikki bechoraning qalbida muhabbat tuyg‘usi allaqachon jo‘sh ura boshlagan edi. “Kambag‘allar” romanida yana bir obraz bor. Makar Devushkinga juda katta yaxshilik qilgan va buni boshqalar singari ovoza qilmagan oqko‘ngil obraz. Asarda Hazrati Oliyilari nomi bilan atalgan, Makarning boshlig‘i. Aynan uning bergan yordami bilan Makar Devushkin eng qiyin mashaqqatlarni yengishi oson bo‘ladi.

Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiyning o‘ziga xos bir uslubi bor. Ya‘ni uning deyarli barcha asarlari og‘riqli, fojeaviy yoki ruhiy kurash bilan yakun topadi. Dostoyevskiy ko‘proq insonning ichki azobi, gunoh, vijdon va najot masalalarini o‘rganadi — shuning uchun uning asarlari “yengil baxtli” yakunlarga ega emas.<sup>3</sup>

<sup>3</sup> Fyodor Dostoyevskiy hayotidan ayrim lavhalar”. — kh-davron.uz



Afsuski, “Kambag‘allar” romani ham bundan mustasno emas. Makar Devushkin va Varvara Dobroselova o‘rtasidagi munosabatlar asarni mutolaa qilayotgan o‘quvchida “Bu sevgimi yoki ota mehriga o‘xshash g‘amxo‘rlikmi?” degan savollarni tug‘diradi. Aslida esa bu tuyg‘ularni hayotda baxtga erisha olmagan, nochorlik qurboni bo‘lgan ikki insonning bir-biriga ruhiy tayanch bo‘lishi, o‘z dardini yengillashtirishga bo‘lgan samimiy intilishi sifatida baholash mumkin. Ammo ijtimoiy tengsizlik va moddiy qashshoqlik ularning bu sodda va pok munosabatiga ham zarba beradi. Varvaraning Bikov bilan turmush qurishga majbur bo‘lishi — nafaqat uning shaxsiy fojiasi, balki Devushkinning ruhiy tanazzulini ham boshlab beradi. Shu orqali Dostoyevskiy kambag‘allikni shunchaki moddiy yetishmovchilik emas, balki inson qadr-qimmatini, orzu-umidlari va ruhiy olamiga tahdid soluvchi ijtimoiy fojea sifatida tasvirlaydi. Asarning epistoloyar shaklda yozilgani ham bevosita shu maqsadga xizmat qiladi. Maktublar orqali qahramonlarning ichki kechinmalari, yashirin iztiroblari va ruhiy tebranishlari bevosita vositachisiz ochib beriladi. Muallif hikoyachini chetga surib, qahramonning o‘z ovozi birinchi o‘ringa chiqaradi. Natijada o‘quvchi Devushkin va Varvaraning dardini nafaqat kuzatadi, balki uni ich-ichidan his qiladi. Epistoloyar shakl asarga samimiylik, tabiiylik va chuqur psixologizm bag‘ishlaydi.

Demak, “Kambag‘allar” romani ikki inson taqdiri orqali jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va kambag‘allik muammosini ochib beruvchi, inson ruhiyati nozik qatlamlarini yoritgan chuqur psixologik-realistik asardir. Dostoyevskiy bu asar orqali inson qalbidagi iztirobni ko‘rsatish bilan birga, jamiyatning adolatsiz tuzumini ham tanqid qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. — Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. — Toshkent, 2018.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. — Toshkent, 2004.
4. Dostoyevskiy F. M. Kambag'allar (roman). — Toshkent: "Turon zamin" nashriyoti. 2024



5. “Fyodor Dostoyevskiy hayotidan ayrim lavhalar”. — kh-davron.uz
6. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/fyodor-dostoevskiy-1821-1881-rossiya>
7. <https://hujjat24.uz/product/dostoevskiyning-kambag-allar-asari>
8. [https://kitobxon.com/ru/yozuvchi/fyodor\\_dostoevskiy](https://kitobxon.com/ru/yozuvchi/fyodor_dostoevskiy)